

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NAZAROVA G.G'., AZIMOV A.E., ADILOVA Z.D.**

**XALQARO DIPLOMATIK MUNOSABATLAR**

**O'QUV QO'LLANMA**

**TOSHKENT – 2009**

Nazarova G.G'., Azimov A.E., Adilova Z.D., Eshtaev A.A., Yusupov A.S.  
Xalqaro diplomatik munosabatlar. o'quv qo'llanma, 2009 y. – 125 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada davlat diplomatiyasi, uning asosiy shakllari va tamoyillari, diplomatiyaning paydo bo'lishi va tarixiy ko'rinishlari, hozirgi zamon diplomatiyasi va diplomatik xizmati, xalqaro munosabatlar, diplomatiyaning nazariy tamoyillari va amaliyoti - dunyo mamlakatlari tajribalari hamda mavjud xronologik materiallar asosida yoritilgan.

Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan mazkur o'quv qo'llanma o'qituvchilar, talabalar, shuningdek xalqaro diplomatiya siyosati va san'ati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar: *Hakimov N.H. – G.V.Plexanov nomidagi RIA ning  
Toshkent shahridagi filiali  
prorektori,  
professor, t.f.d.***

***Xalilov X.X. – TDIU “Jahon iqtisodiyoti va XIM”  
kafedrasi dostenti, i.f.n.***

***Fayzieva K.K. – JIDU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi  
dostenti, i.f.n.***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Ilmiy kengashi oliy o'quv yurti  
bakalavrlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etadi.*

© Nazarova G.G., Azimov A.E., Adilova Z.D., Eshtaev A.A., Yusupov A.S., -  
“Xalqaro diplomatik munosabatlar”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2009 y. – 125 bet.

Jahon taraqqiyoti o'zining hozirgi bosqichiga birdaniga va uzoq kurashlarsiz etib kelgani yo'q. Buning uchun davlatlarning xalqaro munosabatlari, tashqi siyosati va diplomatiyasi taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlarni eslab o'tish kifoya. Insoniyat jamiyatining rivojlanishiga har bir davlatning tashqi aloqalarida diplomatiya muhim o'rin tutadi. Bu hol tushunarlidir, chunki ushbu diplomatiya ko'p hollarda butun bir xalq va davlatlarning takdirini belgilaydi. Ayrim hollarda butun bir xalq hukumdorning idorasiga ko'ra o'zaro bahsga kirishar va nizolarni kuch vositasida hal qilishar edi. Butun tashqi siyosat va diplomatiya quldorlik, feodal va burjua davlatlari orasidagi o'zaro urushlarga asoslanar edi. Mazkur davlatlarni boshida turgan guruhlar o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun tashqi siyosat va diplomatiyadan foydalanganlar.

Bugungi kunda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar – tashqi siyosat va diplomatiyada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda turli mintaqalardagi xalqlarning sa'iy harakatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin mazkur xalqlarning manfatlari bu masalalarning hal qilinishiga bog'liq.

“Sovuq urush” davrining barham topishi va sobiq SSSRning tarqalib ketishi hamda uning o'rnida yangi suveren davlatlarning paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan yangi shart–sharoitlar xalqaro taraqqiyot, shuningdek tashqi siyosat va dunyo davlatlari diplomatiyasi sohasida yangi qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shu o'rinda davlatlar o'rtasidagi munozarali masalalarning tinchlik yo'li bilan hal etilishi va dunyoga xavf solishi mumkin bo'lgan yangi jahon urushlari xavfini batamom yo'qotish haqida so'z bormoqda. Hozirgi paytda bu vazifaning dolzarbligi urushlar va qurolli to'qnashuvlarning ro'y berib turishi bilan izohlanadi. Dunyoda vujudga kelgan ob'ektiv sharoitlar davlatlarning tashqi siyosatida munozarali xalqaro masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishni taqoza etmoqda. Ana

shunday vositalardan biri tashqi siyosatning asosiy quroli bo'lmish diplomatiya va uning xalqaro masalalarini tinch yo'l bilan hal etish usullaridir. Bu jarayon davlatlarning tinch yashashi doirasida olib boriladi. Haqiqiy diplomatiya - davlatlararo muzokaralar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan konferenstiyalarda, shuningdek keng xalq ommasining milliy va xalqaro tashkilotlardagi ishtirokida o'z aksini topmoqda.

Diplomatiya faoliyati barcha davlatlarda mavjud bo'lgan markaziy va chet eldagi organlardan iborat diplomatik apparat (tashqi ishlar vazirliklari, elchixonalari, missiyalar va konsuliklar) da xizmat qiluvchi alohida tanlangan va tayyorlangan diplomatik kadrlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Mazkur kadrlarning faoliyati, markaziy va tashqi aloqalar idoralarning ish tizimi, aynan davlat diplomatik xizmatini tashkil qiladi.

Diplomatik apparat – davlat apparatining ma'lum bir qismi bo'lib uning faoliyat yo'nalishi va mazmuni davlatning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy qurilishi bilan belgilanadi.

Diplomatik apparatni takomillashtirish, kadrlarni tanlash va tayyorlash, bu boradagi tajribalarini puxta o'rganish va amaliyotda qo'llash, xalqaro muammolarni diplomatik vositalar asosida tinch yo'l bilan hal qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish butun dunyo davlatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yilliklarda diplomatik xizmat miqyoslari ancha kengaydi va bu sohadagi ishlar yanada murakkablashib bordi. Tashqi siyosat bilan bog'liq yirik muammolarni hal qilish davlatlarning diplomatik apparat va hukumatidagina emas, balki ulardagi xalqlar manfaatlarini yo'naltira oladigan davlat rahbarlaridan bu masalaga kompleks yondashish va faol ishtirok etishni talab etadi. Shu munosabat bilan xalqaro tinchlik siyosatining muhim muammolari bo'yicha yuksak darajadagi uchrashuvlar, kengashlar va davlat rahbarlarining tashriflari asosida olib boriladigan muzokaralar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik xizmati yildan – yilga takomillashib bormoqda. Chunki, yosh suveren davlat bo'lgan O'zbekiston jahon miqyosida mustaqil tashqi siyosat olib bormoqda va uning pozitsiyasi regional va dolzarb masalalar bo'yicha qaror qabul qilinishi jarayonida hisobga olinmoqda. O'zbekiston singari yosh davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati hozirgi paytda regional va jahon miqyosida xalqaro munosabatlarning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Buni hisobga olmay turib mamlakatning tashqi siyosati bilan bog'liq voqealarni to'g'ri tushunish va idrok qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati uning milliy mustaqilligi, siyosiy va iqtisodiy erkinligi, suverinitetini mustahkamlash va keskin ijtimoiy – siyosiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun katta ahamiyatga egadir. O'zbekistonning xalqaro munosabatlar sohasida erishgan tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil tashqi siyosat olib borish, uning asosiy yo'nalishlari va ustivorliklarini belgilash, tinch totuv yashash tamoyillariga sodiq qolish, teng huquqli munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni keng yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashqi muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng, mamlakatimizdagi xalqlarning qonuniy huquqi – o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqi amalga osha boshladi. Aynan, davlat mustaqilligiga erishish, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy ittifoqlarga a'zo bo'lish O'zbekistonga ana shunday imkoniyatlarni ochib berdi.

Mustaqillikka erishgan boshqa yosh davlatlar singari O'zbekiston uchun ham tinchlik, chegara va ko'shni davlatlar bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi va uning keyinchalik mavjud bo'lishi, rivojlanishi, uning xalqaro miqyosida tan olinishi- mustaqil ichki siyosat olib borishning muhim garovidir. Hozirgi paytda respublikada olib borilayotgan tashqi siyosat uning milliy manfaatlariga muvofiq bo'libgina qolmay, balki mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni